

XITOIY TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHDAGI XATO VA KAMCHILIKLAR.

ABDULLAYEVA KAMOLA AKMAL QIZI

TKXU TALABASI +998936361519

bolibekovanodira2@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada xitoy tilidan o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida uchraydigan xato va kamchiliklar tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida qiyosiy tahlil, xatolarni tasniflash va misollar tahlilidan foydalanildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, tarjimalarda asosan leksik, grammatik hamda uslubiy xatolar uchraydi. Mazkur xatolarning kelib chiqish sabablari, tillardagi o'zaro farqlar va tarjimalarni tahrir qilish amaliyotini kuchaytirish zarurligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: Tarjima tahlili, grammatik xatolar, morfologik qo'shimchalar, leksik darajadagi xatolar, iyerogliflarning ko'p ma'noliligi, madaniyatlararo muloqot, emperik tahlil, texnik kamchiliklar.

Bugungi globallashuv davrida tarjima faoliyati madaniyatlararo muloqotning muhim vositasiga aylanmoqda. Tarjima-bu nafaqat lingvistik jarayon, balki ikki madaniyat, ikki mintalitet, ikki xil tafakkur tarzining o'zaro muloqotidir. Ayniqsa, xitoy va o'zbek tillari turli til oilasiga mansub bo'lgani bois ularning grammatik tuzilishi, leksik boyligi, frazeologik birliklari va statistik xususiyatlari sezilarli darajada farq qiladi. Shu sababli tarjimonlar oldida turli qiyinchiliklar paydo bo'ladi va ba'zan bunday qiyinchiliklar tarjimada xato hamda kamchiliklarga sabab bo'ladi. Xitoy tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishda xatolar quyidagi omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin: Grammatik tafovutlar-so'z tartibi, zamon ifodasi, gap bo'laklarining mos kelmasligi. Leksik xususiyatlar-so'zlarning ko'p ma'noliligi, sinonimlarning ma'no farqlari. Frazeologik birliklar va iboralar-milliy o'ziga xoslikka ega bo'lgan iboralarni to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilishning imkonsizligi. Madaniy tafovutlar-xitoy tilidagi qadriyatlar, tushunchalar va ramzlarning o'zbek kitobxoniga begonaligi. Texnik muammolar-iyerogliflarni noto'g'ri o'qish, transkripsiya va terminalogik izchillikning buzilishi. Shu jihatdan xitoy tilidan o'zbek tiliga tarjimalarda uchraydigan xato va kamchiliklarni ilmiy asosda o'rganish, ularning sabablari va bartaraf etish yo'llarini aniqlash dolzarb vazifa hisoblanadi. Mazkur maqolada ana shu masalaga alohida e'tibor qaratiladi.

Tarjima nazariyasi bo'yicha ilk konseptural qarashlar E.Nida tomonidan ilgari surilib, u tarjima jarayonida ekvivalentlik va dinamik moslashuvning asosiy mezon ekanini ta'kidlaydi[1].

P.Newmark esa tarjimada "kommunikativ" va "semantik" yondashuvlarni farqlab, madaniyatlararo tafovutlarni hisobga olish zarurligini ko'rsatadi[2].

Shuningdek, A.V.Fedorovning ishlari tarjimada ekvivalentlikning nazariy asoslarini keng yoritib beradi[3].

O'zbek tilshunosligida ham tarjima muommolari bo'yicha izlanishlar mavjud. Masalan, A.Madvaliyev tarjima jarayonida semantik aniqlikni ta'minlash muhimligiga alohida urg'u bergan[4].

S.Solixov jayev tarjimalarda til va madaniyat uyg'unligiga alohida e'tibor qaratgan[5].

M.To'xlijeva esa grammatik tafovutlar natijasida yuzaga keladigan xatolarni chuqur tahlil qilgan[6].

So'nggi yillarda xitoy tilidan boshqa tillarga tarjima qilish bo'yicha tadqiqotlar sezilarli darajada kengaydi. Masalan, Huang va Zhang xitoy adabiyotining portugal tilidagi tarjimalarida madaniy elementlarning o'zlashtirilishi haqida so'z yuritiladi[7].

Sun va hamkorlari esa global kommunikatsiyada xitoy tarjima strategiyalarini umumiy ko'rinishda tahlil qilib, madaniyatlararo to'siqlarni yengishda yangi metodlarni taklif qilgan[8].

Xitoy-o'zbek tarjimasi bo'yicha ham ayrim amaliy tadqiqotlar mavjud. Jurabekovna o'z tadqiqotida turizim sohasiga oid matnlarni qiyosiy tahlil qilib, grammatik va semantik tafovutlar tarjima sifatiga qanday ta'sir qilishini ko'rsatgan[9].

Ziyamukhammedov esa xitoy terminologiyasining o'zbek tiliga standartlashtirilmagan holda o'tkazilishi tarjimada chalkashliklarga sabab bo'lishini qayd etgan[10].

Shuningdek, huquqiy matnlarning tarjimasida madaniy tafovutlar hamda terminologik noaniqliklar alohida tahlil qilingan[11].

Amaliy misollar darajasida esa, xitoy tilidan o'zbekchaga taom menyulari tarjimasida "achchiq", "sho'r", "nordon" kabi sifatning noto'g'ri berilishi muhim muammo sifatida qayd etiladi[12].

Bu holat tarjimada leksik-semantik tafovutlarning bevosita oqibatidir. Umuman olganda, mavjud adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, xitoy tilidan o'zbek tiliga tarjimada uchraydigan xatolarning asosiy sabablari grammatik tafovutlar, lug'at bazasining cheklanganligi va madaniy birliklarning to'liq aks ettirilmasligidir. Shu bois, tarjima sifatini oshirish uchun tilshunoslik va madaniyatshunoslikni uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi - xitoy tilidan o'zbek tiliga tarjimalarda uchraydigan xato va kamchiliklarni aniqlash, ularning sabablari hamda bartaraf etish yo'llarini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat. Shu bois metodologiya quyidagi yo'nalishlarga tayangan:

1. Adabiyotlar sharhi-tarjima nazariyasi, xususan, xitoy va o'zbek tillari o'rtasidagi strukturaviy va semantik farqlar haqidagi ilmiy manbalar tahlil qilindi.

2. Korpus tahlili-o'zbek tiliga qilingan xitoycha matnlar tarjimasi (badiiy asarlar, maqolalar va rasmiy hujjatlar) dan iborat korpus tuzildi.

3. Qiyosiy metod-asl xitoycha matn bilan tarjima qilingan o'zbekcha matnlar birma-bir solishtirilib, semantik, grammatik va stilistik darajadagi xatolar qayd etildi.

4. Tasniflash-aniqlangan xatolar quyidagi mezonlar asosida guruhlandi:

- Leksik xatolar (so'z tanlash, sinonimlardan noto'g'ri foydalanish);
- Grammatik xatolar (so'z tartibi, qo'shimchalar, kelishik va zamon uyg'unligi);
- Semantik xatolar (ma'no buzilishi, tushirib qoldirish yoki ortiqcha qo'shish);
- Stilistik xatolar (matn ohangi va uslubidagi nomuvofiqlik).

5. Sotsiologik usul-tarjimonlar va talabalar o'rtasida so'rovnomalar o'tkazilib, qiyinchiliklarni asosiy sabablari (lug'at boyligi yetishmasligi, fon madaniy bilimlar kamligi, tarjima strategiyalaridan bexabar bo'lish) aniqlandi.

Leksik xatolar misol: "长城" (Changcheng) atamasi ba'zi tarjimalarda "Katta devor" shaklida, ba'zilarida esa "Buyuk Xitoy devori" shaklida berilgan. To'g'ri variant "Buyuk Xitoy devori".

Grammatik xatolar misol: Xitoy tilida "我昨天去学校" (Wo zuotian qu xuexiao) tarjimasi - "Men kecha maktabga bordim" gapdagi so'z tartibi (Ega+vaqt+joy+fe'l) o'zbek tiliga "Men maktabga kecha bordim" tarzida noto'g'ri tarjima qilindi. To'g'ri variant "Men kecha maktabga bordim".

Zamon ifodasi: Xitoy tilida fe'llar zamon qo'shimchalari bilan emas, balki kontekstga qarab o'zgaradi. O'zbek tilida esa zamon aniq qo'shimchalar bilan belgilanadi. Shu bois, tarjimada fe'l zamonlari noto'g'ri qo'llanadi.

Semantik xatolar misol: "他心里很冷" (Ta xinli hen leng) tarjimasi - "Uning ko'ngli juda sovuq" ba'zi hollarda "U juda sovuq" tarzida tarjima qilingan. Aslida gap metoforik ma'noda qo'llangan bo'lib, "Uning qalbi juda sovuq" deb tarjima qilinishi kerak.

Texnik kamchiliklar: Xitoy tilidagi iyerogliflarni noto'g'ri o'qish. Pinyin transkripsiyasida tovushlarni o'zbek tilidagi mos shakllarga to'g'ri moslashtirmaslik. Maxsus terminologiyani tarjima qilishda izchillikning yo'qligi.

Stilistik xatolar misol: Xitoy tili nutqida rasmiy ohangdagi iboralar o'zbek tarjimasida oddiy so'zlashuv uslubida berilgan. Natijada matnning pragmatik ta'siri susaygan.

Asosiy sabablar - til tizimlari o'rtasidagi farqlar, madaniy konnotatsiyalarni bilmaslik va tarjima nazariyasi bo'yicha yetarli bilimlarning yo'qligi. Xatolarni kamaytirish uchun: ikki tilli lug'at va korpuslardan faol foydalanish; tarjimonlar uchun

madaniyatshunoslik kurslarini joriy etish; tarjima mashqlarini tizimli tarzda tashkil etish zarur.

Xulosa qilib aytganda xitoy tilidan o'zbek tiliga tarjimada uchraydigan xato va kamchiliklar ko'proq leksik, grammatik va madaniy tafovutlar bilan bog'liq. Ularni bartaraf etish tarjimonning nafaqat lingvistik bilimini, balki madaniy savotxonligini ham talab qiladi. Shunday ekan, tarjimonlarni tayyotlash jarayonida nazariya va amaliyot uyg'unligi, til bilan bir qatorda madaniyatni ham chuqur o'rganishga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nida, E.A.(1964).Toward a science of translating.Leiden:Brill.
2. Newmark, P.(1988).A textbook of translation. New York: Prentice Hall.
3. Fedorov,A.V(2002).Vedenie teoriiyu perevoda.Sankt-Peterburg: Filologiya fakulteti.
4. Madvaliyev.A.(1996).Tarjima nazariyasi va amaliyoti asoslari.Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
5. Solixo'jayev.S. (2025).Til va tarjima muammolari.Toshkent: Fan.
6. To'xliyeva.M.(2010).Tarjima jarayonida lingvistik muammolar.Toshkent: Universitet nashriyoti.
7. Huang.X va Zhang.X.(2025).Translating culture.Humanities and Social Sciences Communications,12,168.
8. Sun.S, Zhao.L va Zhou.X.(2025).Beyond binary oppositions.Humanities and Social Sciences Communications,12,1228.
9. Jurabekovna.V.N(2024).Structural-semantic methods.Western European Journal of Linguistics and Education,96-101.
- 10.Ziyamukhammedov.J.T(2023).Current Problems in the Unification of Chinese Linguistic Terms.Journal of Linguistic and Social studies.
- 11.Comparative Legal Translation in Uzbek and Chinese.(2025).International Journal for Academic Scientific Research.
- 12.Lexical-Semantical Problems in Translation of Flavor Adjectives in the Example of Chinese and Uzbek Languages.(n.d).Research Gate.